

**TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA ZID XATTI-HARAKATLARGA
HUQUQIY BAHO BERISH**

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro tijorat huquqi fakulteti 1-kurs magistri
Shermatova Dinora Umid qizi
Email: dinamiru20@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tender savdolarida raqobatga zid xatti-harakatlar turlari, ularning belgilari, shuningdek kartel kelishuvlari, davlat xaridlari jarayonlari, davlat xaridlari jarayonida o'tkaziladigan tenderlarda raqobatga zid xatti-harakatlarni aniqlash, raqobat qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik asoslari va qonunchilikka zid xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish asoslari, , ushbu mavzuga oid bo'lgan qonunchilik hujjatlari, Amerika, Yaponiya, kabi davlatlarning tender savdolarini tartibga solish asoslari tahlil qilindi. Shuningdek yuqorida nomlari sanab o'tilgan mamlakatlarning huquqiy tizimlari va milliy qonunchilikning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: tender, kartel kelishuvlari, davlat xaridlari, davlat xarid qilish bosqichlari, raqobatga zid xatti-harakatlar, javobgarlik asoslari.

*Tashkent State University of Law,
1st year master of the Faculty of
International Commercial Law
Shermatova Dinora Umid kizi
Email: dinamiru20@gmail.com*

Annotation: In this article, the types of anti-competitive behavior in tenders, their signs, as well as cartel agreements, public procurement processes, identification of anti-competitive behavior in tenders conducted during public procurement, the bases of liability for violation of competition law and illegal behavior the principles of prevention of the crime, legal documents related to this topic, principles of regulation of tender trades of countries such as America, Japan, and were analyzed. Similar and different aspects of the legal systems and national legislation of the above-mentioned countries were also analyzed.

Key words: tender, cartel agreements, public procurement, stages of public procurement, anti-competitive behavior, grounds of liability.

*Ташкентский государственный юридический
университет магистратура 1 курса факультета*

международного коммерческого права

Шерматова Динора Умид девоичка

Электронная почта: dinamiru20@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассмотрены виды антиконкурентного поведения на торгах, их признаки, а также картельные соглашения, процессы государственных закупок, выявление антиконкурентного поведения на торгах, проводимых при государственных закупках, основания ответственности за нарушение конкуренции. право и противоправное поведение, проанализированы принципы предотвращения преступности, правовые документы, относящиеся к этой теме, принципы регулирования тендерной торговли таких стран, как Америка, Япония. Также были проанализированы схожие и различные аспекты правовых систем и национального законодательства вышеупомянутых стран.

Ключевые слова: тендер, картельные соглашения, государственные закупки, этапы государственных закупок, антиконкурентное поведение, основания ответственности.

Bugungi kunda tenderlar davlat va xususiy sektorda keng qo'llaniladigan shartnoma mexanizmi bo'lib, xaridlar jarayonida tenglik, shaffoflik va raqobatni ta'minlashga qaratilgan standartlashtirilgan protseduralar va ko'rsatmalar mavjud. Adolatli savdo jarayonlari, davlat xaridlari jarayonini tashkil qilishda asosiy omillardan biri raqobat muhitida tender savdolarini o'tkazish hisoblanadi. Shu o'rinda tender, tanlov, davlat xaridlari tushunchalariga ta'rif berib, ularning bir-biridan farqli jihatlariga to'xtalib o'tsak. Dastlab tender tushunchasi va uni o'tkazish tartib-taomillariga to'xtalsak. Shu o'rinda tender va tanlov tushunchalarini o'rtasida farq yo'qligini aytib o'tish joiz. Chunki tanlov savdolari tender deb yuritiladi. Tender atamasiga "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunga asosan to'xtaladigan bo'lsak, raqobatli davlat xarididan biri sifatida shartnomani bajarish eng yaxshi shartlarni taklif qilgan ishtirokchi bilan shartnoma tuzilishini nazarda tutadi¹.

Umumiy qilib aytganda, tender atamasi tender ishtirokchilari hisoblangan buyurtmachilar tomonidan yetkazib beruvchilarni tanlab olish uchun qo'llaniladigan maxsus mexanizm desak mubolag'a bo'lmaydi. Tenderga boshqa turli xil ta'riflar ham mavjud, xususan, "Tender-bu savdo tashkilotchisi (kelajakdagi shartnoma kontragentlaridan biri) tomonidan shartnomada ishtirok etishi tashkilotchining manfaatlariga eng mos keladigan boshqa kontragentni tanlash jarayonidir"- deyiladi adabiyotlarda²

¹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2021-y., 03/21/684/0367-son

² Белов В.А. Гражданское право: Общая часть: учебник. М.: АО «Центр ЮрИнфоР», 2004. С.267

Iqtisodiy sohada yangilanishlar ko‘payishi orqali davlat xaridlari salmog‘i ham kundan-kunga ortib bormoqda. Shu sababli mamlakatimizda davlat xaridlari jarayonini tartibga solish va bu borada mexanizmlarni joriy qilish masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Shu o‘rinda “davlat xaridlari” tushunchasi o‘zi qanday mazmunda kelishi va uning mohiyatiga to‘xtalib o‘tsak. Avvalo, qonun nuqtayi nazaridan davlat xaridlari tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu tushunchaga “Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunning 3-moddasida ta’rif berilishicha davlat xaridlari — davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo‘lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta’minlash jarayoni hisoblanadi.

Davlat sektori va kommunal xizmatlarni xarid qilishni tartibga solishning asosiy sababi ularning tegishli bozorlarini xususiy bozorlar faoliyatiga parallel ravishda olib borishdir. Yevropa siyosatchilari davlat bozorlarining o‘ziga xos xususiyatini tan oldilar va xususiy bozorlar faoliyatini boshqaradigan sharoitlarga o‘xshash sharoitlarni yaratishga e’tibor qaratdilar. Ommaviy bozorlar iqtisodiy tenglikni aks ettiradi, bunda talab tomoni umuman davlat sektori va kommunal xizmatlar tomonidan ifodalanadi, taklif tomoni esa sanoatni qamrab oladi. Davlat va uning organlari jamiyat manfaatlarini ko‘zlab bozorga kirishadi. Biroq davlat va uning organlari faoliyati xususiy tadbirkorlikning tijorat xususiyatlarini ko‘rsatmaydi, chunki davlat sektorining maqsadi foydani ko‘paytirish emas, balki jamoat manfaatlariga rioya qilishdir³.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, agarda tender savdolarida davlat organlari qatnashadigan bo‘lsa ya’ni buyurtmachi sifatida qatnashadigan holatlarda, ushbu holatda biz davlat xaridlari tushunchasini yana ham aniqroq tasavvur qilishimiz mumkin. Davlat xaridlari tovarlar, xizmatlar yoki ishlarni sotib olishning samarali jarayonlarini ta’minlash va ularning siyosiy maqsadlariga muvofiqligini ta’minlash uchun davlatlar tomonidan qo‘llaniladigan prinsiplar, qoidalar va tartiblarni tartibga solishdir. Davlat xaridlarida raqobat qonunchiligini qo‘llash orqali hukumat birinchi navbatda eng past qiymatda o‘zining talablariga to‘g‘ri keladigan eng yaxshi taklifni adolatli tarzda tanlab olishi mumkin. Bundan tashqari davlat xaridlarida tender o‘tkazish orqali davlat tashkilotlari qulay tarzda o‘zlarining talablariga mos bo‘lgan ishtirokchilarni saralab olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Qolaversa, davlat xaridlarida tender o‘tkazish yo‘li bilan tanlab olingan ishtirokchilar biznes uchun katta miqdorda foyda olib kirishlari mumkin. Kompaniyalar resurslarni tejash orqali tenderda yutishga harakat qilishadi. Bu esa ikkala tomon ham davlat ham biznes kompaniyalari uchun yutuq hisoblanadi.

O‘zbekistonda davlat xaridlari jarayoni **“Davlat xaridlariga to‘g‘risidagi qonunning 26-moddasiga muvofiq**, quyidagi to‘rtta muhim bosqichga ajratilgan:

1. Davlat xaridlarini rejalashtirish;

³ EU Public Procurement Law, Christopher H.Bovis, 2012, 11,13-page.

2. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish;
3. Shartnomani tuzish va bajarish;
4. Davlat xaridlari monitoringi.

Davlat xaridlarini rejalashtirish bosqichi davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi va bu bosqichda ko‘zlangan asosiy maqsad budjet va investitsiya jarayonlarini rejalashtirish va xo‘jalik faoliyatini rejalashtirishda ushbu ikkita tomonni muvofiqlashtirish hisoblanadi. Har yillik tuzilgan reja-jadvallar maxsus axborot portalida joriy yil uchun 25-mart sansiga qadar joylashtirilishi zarur. Keyingi yil uchun davlat buyurtmasi reja jadvallari 25-dekabrga qadar joylashtirilishi zarur.

Ikkinchi bosqichda xarid qilish tartib-taomili qaysi tartibda amalga oshirilishi aniqlanishi zarur. Bunda davlat buyurtmachisi oldida bir qator tanlovlar mavjud. Bular elektron do‘kon, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari hisoblanadi. Davlat xaridlari ya‘ni qonunchilik, reja-jadvallar, e‘lonlar, namunaviy shartnomalar barchasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar maxsus axborot portalda e‘lon qilinishi lozim. E‘lon berilgandan keyin taklif bergan ishtirokchilarning takliflari narx, yetkazib berish bazasi va muddatlari, sifat ko‘rsatkichlari, foydalanish muddati, to‘lov va kafolat shartlari kabi mezonlar asosida baholanishi lozim. Shu o‘rinda ishtirokchilarning o‘zlariga qo‘yilgan talablarni ham aytib o‘tish joiz, bunda ishtirokchilar shartnomani bajarish uchun moliyaviy, texnik, malakali xodimlar masalasida yetarlicha resurslarga ega bo‘lishi, shuningdek, shartnoma tuzish uchun huquq-vakolatga ega bo‘lishilari, soliq va yig‘imlardan qarzdorlik holati bo‘lmashligi va to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomlari mavjud bo‘lmashligi lozim. Xarid qilish tartib-taomillaridan tender usuli haqida chuqurroq ma‘lumotga ega bo‘ladigan bo‘lsak, tender vositasidagi davlat xarida ikkita muhim shartlar bajarilsagina malga oshiriladi, ya‘ni g‘olibni aniqlash mezonlari tovarning nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatdan baholanishini taqozo etadi va davlat xaridi bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil qilganda o‘tkaziladi. Tender o‘tkazish uchun kamida yetti nafar a‘zodan iborat xarid komissiyasi tuzilishi lozim, shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlari tender ishtirokchilari takliflariga asosan xarid komissiyasi tomonidan aniqlanishi lozim. Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lon maxsus axborot portalida barcha uchun ochiq tarzda, tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini barchasini yuklangan holda e‘lon qilinishi lozim. Bir jihat e‘tiborga olinishi lozimki, tender o‘tkazilishi bo‘yicha e‘lon davlat xaridlari hujjatlari yuzasidan Kompleks ekspertiza qilish markazi ijobiy xulosasi olingandan so‘ng axborot portalga joylashtirilishi mumkin. Tender xarid qilish hujjatlariga e‘lon, valyuta va to‘lov tartibi to‘g‘risida ma‘lumot, taklifni texnik va narxga oid qismi va ularni baholash tartibi, xarid qilish hujjatlariga doir tushuntirishlarni taqdim etish va tugatish sanalari, texnik topshiriq,

tender ishtirokchisi takliflarini baholash tartibi, korrupsiyaga qarshi ekanligini to‘g‘risida ariza majburiyligi to‘g‘risida talab hamda tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga uning ajralmas qismi hisoblangan shartnoma loyihasi ilova qilinishi lozim. Tender ishtirokchilari takliflarini berish tartibiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bitta tender ishtirokchisi faqat bitta taklif berishi lozim, takliflar konvertga solingan holda, muhrlangan tarzda e‘londa ko‘rsatilgan manzilga jo‘natilishi lozim. E‘lon bo‘yicha kamida ikkita taklif kelib tushsa, ushbu takliflar xarid komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Agarda taklif kelib tushmagan taqdirda, tender o‘tkazilmagan hisoblanadi va tender qaytadan takroran o‘tkazilishi lozim. Tender takliflari qirq besh kun ichida ko‘rib chiqilishi lozim. Agarda taklif tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va qonunchilik hujjatlariga mos kelsa, taklif tegishli tartibda rasmiylashtiriladi. Xarid komissiyasi tender ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun ochadi. Konvertlarni ochish paytida davlat buyurtmachisi tomonidan videoyozuvga olinadi va taklifning narxi va boshqa hujjatlar o‘qib eshittiriladi, agar ishtirokchi bergan ma‘lumotlar ishonchsiz ekanligi aniqlansa, ushbu ishtirokchi tenderning istalgan bosqichida chiqarib yuborilishi mumkin. Tenderda baholash ikki bosqichda amalga oshiriladi, birinchi bosqichda taklifning texnik qismi baholanadi, ushbu bosqichdan kamida ikkita taklif o‘tsa, ikkinchi bosqich ya‘ni narxga oid qismi baholanadi. Tender barcha ishtirokchilari takliflari rad etilgan taqdirda va xarid qilish hujjatlariga faqat bitta taklif mos keladigan holatlarda, tender o‘tkazilmagan hisoblanadi. Tender bo‘yicha xarid qilsih hujjatlarida va taklifda ko‘rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan ishtirokchi g‘olib deb topiladi. Tender ishtirokchisi taklif qilgan shartlar asosida shartnoma tuziladi.

Shuni ta‘kidlashimiz kerakki, davlat xaridlarida tender o‘tkazish tartib qoidalariga raqobatli usullarga amal qilgan holda yondashilsa, hech bir tender ishtirokchisiga nisbatan adolatsizlik qilinishiga olib kelinmas edi, davlat xaridlari ham shaffof va samarali tarzda tashkil qilishiga erishish imkoniyati paydo bo‘lardi.

Tender savdolarini raqobat huquqi ta‘siri ostida tartibga solish chet el davlatlarida raqobatli muhitni yaratish va savdolarida adolatni ta‘minlash maqsadida bir qator modellar va uslublar mavjud. Bu qonun-qoidalar raqobatga qarshi xatti-harakatlar xususan savdolardagi huquqbuzarliklar, kelishuvlar, kartellar, price fixing va shunga o‘xshash huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan.

Amerika qonunchiligi bo‘yicha sudlar ikki xil yondashuv asosida shartnomalarni raqobatga zid yoki zid emasligini aniqlaydi. Bu yondashuvlarlar “**per se illegal**” va “**rule of reason**” yondashuvlaridir. Agarda raqobatchilar o‘rtasida shartnoma bo‘ladigan bo‘lsa, bu shartnomalar “per se illegal” yondashuvi asosida analiz qilinadi. Bundan ko‘rinib turibiki, tender savdolaridagi shartnomalar “per se illegal” yondashuvi asosida tahlil qilinadi. “Per se illegal” yonashuvida harakat bu o‘z-o‘zidan haqiqiy

emas, ya'ni noqonuniyligini anglatadi. Masalan, tender ishtirokchilari hech qanday yozma kelishuv tuzishmaydi, lekin ular bir-biriniki o'xshash taklif kiritishadi, narxlar borasida deyarli bir xil miqdor bo'ladi, lekin ular bittta g'olibni tanlashga kelishishgan bo'ladi, tabiiyki narx va taklif borasida ham g'olib qilib tanlashga kelishilgan ishtirokchida eng yaxshi taklif va eng yaxshi narx bo'ladi.

Amerika qonunchiligi savdolaridagi raqobatga zid xatti-harakatlarni tartibga soluvchi asosiy qonun Sherman antitrust qonuni hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu qonunga qo'shimcha ravishda **Clayton akti va Federal savdo komissiyasining akti** qabul qilingan bo'lib, shu uchta asosiy hujjat raqobat qonunchiligini tashkil qiladi. Yaponiya va O'zbekiston o'rtasidagi tender jarayonlar, tartib solish mexanizmlaridagi asosiy farqlar normativ jihatdan sohaning tartib solinishi, shaffoflik va adolat tamoyillar ishlashishi va ijro va nazorat mexanizmlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, Yaponiya normativ-huquqiy bazasi tender jarayonlari adolatli va shaffof tanlov savdolari tartibini ilgari surishga qaratilgan aniq qonunlar bilan tartibga solinadi. O'zbekistonning tender tizimi davlat xaridlari va raqobat to'g'risidagi keng qonunlar bilan tartibga solinadi va maxsus tartibda tender jarayonlarini tartibga soluvchi qonun normalari mavjud emas.

Shuningdek, Yaponiyaning xarid qilish jarayonlari shaffoflik va adolatni birinchi o'ringa qo'yadi, aniq qoidalar va ijro etish mexanizmlari mavjud. O'zbekiston tender tizimida shaffof jarayonlar va me'yoriy hujjatlar kamroq hisoblanadi va tizimda ko'pincha buyrokatiya va korrupsiyaviy muammolarga duch kelinadi, bu esa adolatni ta'minlash va shaffoflikni ta'minlashda qiyinchiliklarga olib keladi.

Yaponiyada tender jarayonlarini nazorat qilish va tartibga solish hamda tegishli qonun va qoidalarga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan maxsus agentliklar mavjud. O'zbekistonda ijro mexanizmlari nisbatan sust yo'lga qo'yilgan, bu esa tender jarayonida oshkoralik va adolatlilikni ta'minlashda muammolarga olib keladi.

Auksionda, birjada, davlat xaridlarida yoki har qanday savdolarida raqobatga zid xattii-harakatlar narxlarni belgilashni o'z ichiga oladi, shu jumladan, almashtirish va bozorni taqsimlash. Firibgarlik odatda tender ishtirokchilari o'zlarining mustaqil takliflarini taqdim etishdan ko'ra o'z takliflarini muzokara yo'li bilan buyutmachilar bilan kelishishsa tenders avdolarida raqobatga zid xatti-harakatlar kelib chiqadi. Tender takliflarini soxtalashtirish - bu noqonuniy faoliyat bo'lib, unda ishtirokchilar o'zaro yashirin ravishda tenderda g'alaba qozonishini kelishib, raqobat illuziyasini yaratishadi. Eng yaxshi narxni tanlab, ko'pincha milliy va mahalliy hokimiyat organlari bo'lgan xaridorlar ko'proq pul to'lashga majbur bo'lishadi⁴.

⁴ Конкурентное право и политика Узбекистана [Текст]: учебник / Бахшилло Камолович. Ходжаев, Хусаин Мухаммад угли Раджапов. Т.: Изд-во ТГЮУ, 2023.261-262 с.

“Raqobat to‘g‘risida”gi qonunning **19-moddasiga muvofiq**, tovar yoki moliya bozorida ikki va undan ortiq tarafning raqobatni cheklashga yoki iste‘molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilishiga olib keladigan yoxud olib kelishi mumkin bo‘lgan, bitta yoki bir nechta hujjatda aks ettirilgan yozma shakldagi shartlashuvi, shuningdek og‘zaki shakldagi shartlashuvi raqobatga qarshi kelishuv(kartel kelishuvi) hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytilish mumkinki, ushbu maqolada faqatgina tender savdolarida raqobatga zid xatti-harakatlarning huquqiy tabiati tahlil qilinibgina qolmay, davlat xaridalarida tizimida muhim ahamiyat kasb etishini, ham an’anaviy ham elektron savdo jarayonining muhim bir omili ekanligini, ayniqsa, tender tashkil qilish bilan bog‘liq milliy qonunchiligimizda ko‘zga ko‘rinmas jihatlarni, takliflarni soxtalashtirishni oldini olishga qaratilgan tizimlarni tender jarayonlariga tatbiq etish masalalari va muammolarini ham amaliy, ham nazariy jihatdan tahlil qilindi hamda raqobat huquqi eng rivojlangan davlatlardan AQSH, Yaponiya kabilarni huquq tizimlarining tajribasi o‘rganildi.

Raqobat qo‘mitasining davlat xaridalaridagi raqobatga zid xatti-harakatlari haqidagi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning 8 oylik davrida o‘tkazilgan 29 ming 98ta tender savdolari tahlil qilindi. Qayd etilishicha, buyurtmachilar tomonidan 8964 ta savdolar jarayonida 12 ming 826 ta raqobatga zid harakatlar aniqlangan. Qonunbuzilishlarining 72,7 foizi savdolar o‘tkazishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibini buzish bilan bog‘liq bo‘lsa, 27,3 foizida til birlashtirish orqali kelishib olingan, muvofiqlashtirilgan harakatlar alomatlari kuzatilgan. Ko‘rsatilgan raqamlardagi jinoyatlar ko‘pchiligi davlat xaridlari jarayonlarida yuz berganligini hisobga olsak, ushbu holatda ko‘rishimiz mumkinki davlat budjetiga sezilarli darajada zarar keltirgan, vaholangki noqonuniy davlat budjetidan chiqib ketgan summalar boshqa kerakli maqsadlarda ishlatilishi mumkin edi. Raqobat zid xatti-harakat, kelishuvlarning yashirin sodir etilishi va taraflarning o‘zaro manfaatdor bo‘lishlarini inobatga olgan holda aniqlanmagan holatlar ham mavjudligini ayta olamiz. Tarixan kuchli madaniyatga ega bo‘lgan xalq uchun, qolaversa fuqarolarining aksariyat qismini islom diniga e‘tiqod qilishini hisobga oladigan bo‘lsak, bu juda ham achinarli holat. Chunki, har bir farzand uchun yoshi ulug‘lar tomonidan ular tug‘ilganidan buyon birovning haqqini yemaslikni o‘rgatilib kelinadi.

Raqobatga qarshi kelishuv, xatti-harakatlarga shunchaki majlis qilib yoki gap bilan kurashib bo‘lmaydi. Insonlarning huquqiy savodxonligini oshirish, qonunlarga amal qilib yashash tarzini shakllantirish, davlat va fuqarolar o‘rtasida o‘zaro ishonch va mutanosiblikni yo‘lga qo‘yish, davlat organlari xodimlarini kartellar iqtisodiyotga bolta uruvchi yomon illat ekanligi va unga qarshi kurashish lozimligi to‘g‘risida doimiy o‘qitib borish bilan bu kabi huquqbuzarliklar oldi olinishi va biznes tarqqiyoti uchun zamin yaratilishi mumkin.

Mavzuni atroflicha tahlil qilish natijasida olingan nazariy va amaliy bilimlardan kelib chiqib, quyidagi yo‘nalishlarda takliflar beriladi.

I. Ilmiy-nazariy takliflar:

Birinchidan, tender savdolarida qatnashuvchi ishtirokchilar minimal miqdorini ko‘paytirish kerak. Chunki qonunchiligimizga ko‘ra tenderda kamida ikkita ishtirokchi qatnashsa, tender o‘tkazilgan hisoblanadi. Lekin bu holat ishtirokchilar tenderda kartel kelishuvlari tuzishlari uchun qulay sharoit hisoblanadi, agarda ishtirokchilar soni oshirilsa, kelishuv tuzish ehtimoli sezilarli darajada kamayishi mumkin.

Ikkinchidan, qurulish industriyasida tender savdolari jarayonlarida Yaponiya tajribasi asosida tasodifiy g‘olib ishtirokchini tanlashni joriy qilish lozim. Chunki agar takliflar tasodifiy tanlansa, tender ishtirokchilari qaysi birining taklifi qabul qilinishi bo‘yicha ma‘lumotga ega bo‘lmaydi. Bu esa ishtirokchilar o‘rtasida kartel kelishuvlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tender savdolarida kartel kelishuvlari uchun “per se illegal” qoidasi qo‘llanilishi lozim. Xorijiy davlatlarning aksariyat qismida, xususan, AQSH, Yaponiya kabi davlatlarda ushbu qoida qo‘llaniladi. Bu qoidaning mazmuni shundan iboratki kartel kelishuvi tuzishning o‘zi noqonuniy hisoblanadi. Masalan, tender ishtirokchilari tender e‘lon qilinishidan oldin kartel kelishuvi tuzishadi, lekin vakolatli organlar ishtirokchilarning kelishuvlarini fosh qiladi. Bunday holatda bizning qonunchilik bo‘yicha javobgarlik kelib chiqmaydi. Agarda kartel kelishuvi iste‘molchilarga zarar yetkazishga ulgurmaganligiga yoki amalda hali tender jarayonlariga tatbiq qilinmaganlik holati yuz bergan bo‘lsa ham, kartel kelishuv tuzilganlik fakti asos sifatida olinib, tender ishtirokchilari javobgarlikka tortilishi lozim.

II. Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuning 20-moddasida keltirilgan subyektlar ya‘ni jismoniy shaxs, xo‘jalik yurituvchi subyekt, yuridik shaxslar birlashmasi qatoriga tegishincha davlat organlari va davlat tashkilotlarini kiritish orqali o‘zgartirish kiritilishi darkor. Hozirda qonunchilikda davlat organlari kartel kelishuvi tuzgan holatlarda masalan davlat xaridlari jarayonlarda har doim bir tarafda buyurtmachi sifatida davlat orgalari qatnashadi, agarda ular ishtirokchilar bilan takliflarni soxtalashtirishga oid kartel kelishuvi tuzgan bo‘lsa va bu haqida vaholatli organga xabar bersa, ular javobgarlikdan ozod qilish masalasi hal qilinmagan. Agarda 20-moddaga javobgarlikdan ozod qilinuvchi subyektlar qatoriga davlat organlari ham qo‘shilsa, kartellarni fosh qilish protseduralari yana ham osonlashishi mumkin.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga tegishlicha davlat xaridlari sohasida jinoyatlarni oldini olish maqsadida “Davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlar” deb nomlangan alohida modda kiritilishi lozim. Buning zaruriyati shundan

iboratki, ko‘p holatlarda davlat xaridlari sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy javobgarlik qo‘llanilgandan keyin jinoiy javobgarlikka tortiladi. Lekin bu holatda davlat budjetiga sezilarli miqdorda zarar yetishini hisobga olgan holda, to‘g‘ridan to‘g‘ri jinoiy javobgarlik belgilanishi lozim. Bu holat mansabdor shaxslar va davlat organlari xodimlarining ma‘suliyatini oshirishga yoki shunchaki ma‘muriy yo intizomiy javobgarlik bilan cheklanishning oldini oladi.

Uchinchi dan, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 175^s-moddasida belgilangan raqobatga zid kelishuvlar tuzganlik jarima miqdorini oshirish zarur. Chunki tasavvur qilaylik davlat buyurtmachilari yoki tender ishtirokchilari o‘zlarining noqonuniy kelishuvlari orqali millionlab foyda olishadi, ular uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorida ya‘ni 3 400 000 miqdordagi mablag‘ni to‘lash qiyinchilik tug‘dirmaydi. Jarimaning past darajasi kelgusida yana ushbu qonunga zid holatlar takrorlanishiga sabab bo‘laveradi.

III. Huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirishga oid takliflar.

Tender savdolarida raqobatga zid xatti-harakatlarning oldini olish va raqobatli muhitda savdolar jarayonlarini tashkil qilishda, tender savdolarida raqobatga oid normalarni amaliyotga to‘g‘ri va samarali tatbiq qilish maqsadida quyidagi takliflarni amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchi dan, Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasiga tergov qilish borasida qo‘shimcha vakolatlar berish lozim. Rivojlangan mamlakatlarda xususan Singapur davlatida raqobatga zid xatti-harakatlarni tergov qiluvchi maxsus byuro tashkil qilingan bo‘lib, bu byuro raqobat organi tasarrufida hisoblanadi. Bundan tashqari, Vetnam davlatida ham raqobat organiga tergov qilish vakolati berilgan bo‘lib, bu holat raqobatga qarshi huquqbuzarliklar tezroq aniqlanishi va to‘g‘ri kvalifikatsiya qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi dan, O‘zbekistonda ham tender jarayonlarida axborotlarni skrining qiluvchi va kartel kelishuvlarni tahlil qiluvchi tizimlar xususan BRIAS(Bid rigging indicator analysis System)ni joriy qilish lozim. Ushbu dastur Janubiy Koreya davlatida joriy qilingan bo‘lib, bu tizim orqali davlat xaridlari jarayonlarida barcha ma‘lumotlarni to‘planib tahlil qilinadi, barcha tender o‘tkazuvchi buyurtmachilar tender ma‘lumotlarni ushbu tizimga yuborishi shart qilib qo‘yiladi, dastur esa ishtirokchilar takliflarni tahlil qilish orqali tender savdolaridagi raqobatga qarshi kelishuvlar oldi olinadi.

Uchinchi dan, Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi xodimlari uchun raqobat huquqi bo‘yicha yetakchi mutaxassislar tomonidan tender savdolarida raqobatga qarshi xatti-harakatlar, kartel kelishuvlarini aniqlash va oldini olish yuzasidan o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish, xodimlar bilim va ko‘nikmalarini oshirib boorish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek,

kartel kelishuvlari yoki tender savdolaridagi raqobatga zid xatti-harakatlar to‘g‘risida ma’lumot kelib tushishini kutmasdan, oldindan kuzatuv yoki monitoring chora-tadbirlarini amalga oshirish zarur. Bundan tashqari tender savdolarida raqobatga qarshi xatti-harakatlarni aniqlash yuzasidan maxsus yo‘riq-noma yaratish darkor.

Foydalanilgan manbalar/References

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qabul qilingan sana 30.04.2023, kuchga kirish sanasi 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi, <https://lex.uz/docs/-111453>
- 1.3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi, <https://lex.uz/acts/-111189>
- 1.4. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-97664>
- 1.5. O‘zbekiston Respublikasining Raqobat to‘g‘risidagi qonuni, O‘RQ-850-son 03.07.2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6518381>

II. Xorijiy davlatlar qonun hujjatlari va xalqaro tashkilotlar hujjatlari:

- 2.1. OECD, Fighting bid rigging in public procurement. 2016. <http://www.oecd.org/competition/>
- 2.3. Sherman Antitrust Act(1890)
<https://www.archives.gov/milestone-documents/sherman-anti-trust-act>
- 2.4. Japan: Foreign Law Brief: Antimonopoly Law. <https://tile.loc.gov/storage-services/service/ll/llglrd/2021700336/2021700336.pdf>

III. Darsliklar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar va monografiyalar:

- 3.1. Белов В.Е. Правовое регулирование размещения государственного заказа // Право и экономика. 2005. №2
- 3.2. Конкурентное право и политика Узбекистана [Текст]: учебник / Бахшилло Камолович. Ходжаев, Хусайн Мухаммад угли Раджапов. Т.: Изд-во ТГЮУ, 2023.261-262 с

3.3. Connor, John M. Global price fixing. Vol. 2. Heidelberg: Springer, 2007.

3.4. Sokol, D. Daniel. "Cartels, corporate compliance, and what practitioners really think about enforcement." *Antitrust LJ* 78 (2012): 201.

IV. Foydalanilgan internet manbalari:

5.1 <http://www.lex.uz>

5.2 <http://www.norma.uz>

5.3 <https://raqobat.gov.uz/>